

**MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB  
QUVVATLASH VA ULARGA DAVLAT TOMONIDAN  
BERILADIGAN IMKONIYATLAR.**

**Sotvoldiyeva Yoqudaxon O‘tbosarovna <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Dang‘ara tuman 3- son Politexnikumi 27/24- guruh talabasi

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

<p><b>MAQOLA TARIXI:</b> Received:31.01.2025 Revised: 01.02.2025 Accepted:02.02.2025</p> <hr/> <p><b>KALIT SO‘ZLAR:</b> Huquqlarni himoya qilish,qaror va farmonlar,ayollar huquqlari ,huquq va erkinliklar , ayollar daftari,kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik,zo‘rovonlik,yangi imkoniyatlar,subsidiya, imtiyozli davolanish,davlat dasturlari,gender tenglik,davlat granti.</p>	<p><i>Mazkur Maqolada O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning o‘rnini mustahkamlash,ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish,iqtisodiy,ijtimoiy,madaniy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari haqida so‘z yuritiladi. Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab – quvvatlashga doir qonun va normativ hujjatlar imzolangan. Ayollarni ta‘lim olishi, kasbiy rivojlanishi, ish bilan ta‘minlanishi ,imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va ularni bandligini oshirish yo‘lga qo‘yilgan.Jamiyatda xotin-qizlarning mavqeyini yanada yuksaltirishga ,ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan chora tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Ayollarni oiladagi va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash,qonunlarda va davlat tashkilotlarida ayollarning gender teng huquqliligini keng yoritib beriladi.</i></p>
--	--

**Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi**

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasidagi xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish haqida qaror va farmonlar ishlab chiqildi . Oilada ayollar o‘rni bo‘lib, ayniqsa farzand tarbiyasida juda muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2025 –yil 8-martidagi PF- 87-sonli Farmoni ham misol bo‘la oladi.Bunda xotin-qizlarni

tizimli qo‘llab- quvatlash va ularga huquqiy yondashish, manfaatlarini himoya qilish chora tadbirlari haqida muhim masalalar kiritilgan. Yana bir misol: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2025-yil 28-maydagi SQ-297-6-sonli Qarori : Ushbu qarorda 2030-yilgacha O‘zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Xotin –qizlarning jamiyatdagi o‘rnini oshirish ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada 2023-yilda qabul qilingan bo‘lib, bunda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish tenglikni ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqildi. Konstitutsiyada ayollarning huquq va erkinliklarini kafolatlash va ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik mustahkamlandi. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlar ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining **“Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida“**gi Konvensiyasiga qo‘shilgan. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlariga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizning xotin-qizlar haqidagi moddasi ham bor. Konstitutsiyamizning 10-bob 46-moddasida **“Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir“** deb yozilgani bu ham yana bir isbotidir. Respublikamizda 2023-yilda qabul qilingan **“Tenglik strategiyasi“** 2030-yilgacha davom etishi belgilandi. Ushbu xujjat xotin-qizlarning barcha imkoniyatlarini kengaytirilgan qonun va qarorlar qabul qilindi.

- Qishloq joylarda xotin-qizlar uchun ta‘lim va ish imkoniyatlarini kengaytirish:
- Zo‘rovonlik va kamsitishga qarshi kurashni kuchaytirish:
- Xotin-qizlarni yuqori lavozimlarga tayinlashni davom ettirish:

Kabi ularni davlat boshqaruvida ishtirok etishini ta‘minlash haqida qaror va farmonlar ishlab chiqildi. Ushbu qonun va farmonlarning imzolanishi xotin- qizlar uchun davlat tomonidan yanada keng imkoniyatlarni yaratdi

#### ❖ **Xotin-qizlarga beriladigan imkoniyatlar**

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarimiz uchun yanada yangi imkoniyatlar mavjud. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ,yurtboshimiz 2025-yildagi qaror va farmonlarida ham gapirib o‘tdilar. Masalan: Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida **“Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli xotin-qizlarimizni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqqini kamaytirishi taqiqlanadi“** deb belgilangan. Mamlakatimizda 2022-yil 7-martda qabul qilingan: **“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlar“** to‘g‘risidagi farmoni bilan , xuddi shu yil 1-sentyabrdan boshlab, xususiy korxonalar va tashkilotlarda oxirgi

6-oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy iste'mol harajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yoki byudjetdan tashqari yani xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarning homiladorlik va tug'ish ta'tillari uchun nafaqa puli , dekret yoki bola puli olishi tayinlangan. Kam ta'minlangan ayollarga davlatimiz ijtimoiy yordamlar ham ajratgan. Masalan: Moliyaviy yordam, naqd pullar ko'rinishida kam ta'minlangan oilalarga 1-martalik yordam pullari ko'rinishida, subsidiya-uy-joy , tikuv mashinalari, elektr, gaz, komunal to'lovlar ko'rinishida yodam berildi. Ishsiz ayollarni kasbiy o'qitish kurslariga jalb qilinib, kasb-hunarlar o'rgatildi. Ish o'rinlari ajratilib ishsiz kam ta'minlangan ayollar bo'sh ish o'rinlariga jalb etildi. Moddiy yordamga muhtojlarga oziq-ovqatlar berildi, kam ta'minlangan oila a'zolariga kiyim-kechaklar, farzandlariga o'quv-qurollari ko'rinishida yordamlar ko'rsatildi . Uy-joyga muxtojlariga uy-joylar,ta'mirtalab bo'lsa ta'mirlab berildi. Tibbiyot sohasida ham juda katta o'zgarishlar bo'lib,tibbiy yordamga muhtoj oilaga imtiyozli davolanish bepul yoki arzonlashtirilgan holda tibbiy xizmatlar berildi. Zarur dorilarni olishga imkoni bo'lmagan ayollarga bepul taqdim etildi. Huquqiy maslahat va bepul yuridik xizmatlar taqdim etildi. Xotin-qizlarimiz bollari uchun bepul ta'lim olish imkomiyatlari mavjud.

#### ❖ **Ayollar salohiyatini oshirish bo'yicha milliy strategiya**

Xotin-qizlarimiz 2025-yilda **3500** nafar kam ta'minlangan oila yoshlari O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida to'liq **GRAND** asosida ta'lim olishlari mumkin bo'ladi. Ayollarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash uchun davlat grandlari va o'qitish tizimlari amalga oshirilishi yana bir imkoniyatdir. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** 2024-yil 19-oktabrdagi 2024\2025-o'quv yili uchun kollej va texnikumlarda ham juda katta yordam va qulayliklar yaratildi . Qurilish, transport,kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasidagi kasblar bo'yicha to'lov kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan **790-nafar** xotin- qizlarning davlat granti mablag'larini ajratib berish masalasida yozgan 3/19-2/1-65/1-sonli xatini ko'rib chiqib, quyidagilarni malum qiladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabrdagi "Kollej va texnikumlarda kasb egallash istagi bo'lgan xotin-qizlarni yanada qo'llab- quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" gi 516-sonli qarorning 2-bandida 2023/2024-o'quv yilidan boshlab kollej va texnikumlarga qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kasb-hunarni egallashni istagan xotin-qizlar davlat granti asosida ta'lim olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, xarajatlari to'liq **Davlat byudjeti** mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilab qo'yilgan .

✓ O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda qonunida ko‘rsatil. “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida“ gi O‘RQ-886-son Qonuni 13-moddasida kasb –hunar maktablarida, kollejlari va texnikumlarni sarflash xarajatlari 2024-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasining “ Respublika byudjetidan ,viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirish” tizimiga o‘tkazildi.

✓ 2024/2025-yil o‘quv yilidagi yangi o‘zgarishlar kollej va texnikumlarga qurush, transportlar, kommunal ,qishloq ho‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalariga kasblar bo‘yicha to‘lov- kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilganligini o‘rganib chiqildi.

**Xulosa.** Mamlakatimizda xotin–qizlarni qo‘llab–quvatlash va ularga berilayotgan imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Texnikumlar, oliy o‘quv yurtlarida davlatimiz rahbari ayollar uchun juda ko‘p imkoniyatlar berilgan.Qishloq joylaridagi ayollarimizga kasb-hunarlar o‘rgatilib,shu yo‘nalishlarga doir ishlar bilan ta‘minlandilar. Ishsiz ayollar uchun“**Ayollar daftari**“ ham joriy qilingan. Bunda ayollarimiz ish bilan ta‘minlanib, tadbirkorlikka yo‘naltirildi. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berildi.Zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida ayollarga sud –huquq masalalarida bepul maslahatlar berildi. Huquqiy faolligini oshirish maqsadida seminar va tadbirlar tashkil qilindi. Sog‘lomlashtirish dasturlari, bepul tibbiy ko‘rik va davlatimiz tomonidan bepul davolanish imkiniyatlari berildi.Ayollarimizni himoya qilish maqsadida qaror va qonunlar ham ishga tushurildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023-yil. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi farmonlari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025.
3. Xalqaro huquq hujjatlari. BMT Konvensiyasi: Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya. – BMT, 1979-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. – 2023-yil. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
5. Xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish. – T.: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 2020.
6. Gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari. – T.: Ijtimoiy tadqiqotlar markazi, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun. – 2024-yil. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.